"EUROSUN HEALTHCARE" MCHJning

2026 yil 05 yanvardagi

1-sonli Buyrug'I bilan tasdiqlangan

PULLIK TIBBIY XIZMATLAR KO'RSATISH BO'YICHA OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI

Ijrochi (Shartnoma matnida — Klinika) — O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 20.11.2024 yilda berilgan 493148-sonli litsenziya asosida faoliyat yurituvchi **«EUROSUN HEALTHCARE» MChJ QK (Hindiston qo`shma korxonasi)** Mazkur litsenziya 07.03.2027 yilgacha amal qiladi.

Ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369-moddalariga muvofiq rasmiy Ommaviy Oferta (taklif) hisoblanadi.

Mazkur shartnoma **«EUROSUN HEALTHCARE» MChJ QK** (bundan buyon matnda – «Ijrochi» yoki «Klinika») tomonidan o'zining rasmiy veb-saytida (eurosunhealthcare.com), mobil ilovalarida yoki klinika binosidagi ma'lumotlar taxtasida joylashtirilgan paytdan boshlab barcha jismoniy shaxslarga (bundan buyon matnda – «Mijoz» yoki «Bemor») yo'naltirilgan rasmiy taklifdir.

Mijoz tomonidan xizmatlar uchun to'liq yoki qisman haq to'lanishi, yoki klinikada ro'yxatga olish varaqasi (anketa), Shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik xati, Axborotlashtirilgan ixtiyoriy rozilik (IMR) hujjatlaridan birining imzolanishi ushbu Ofertaning so'zsiz, to'liq va hech qanday shartlarsiz qabul qilinganligini (**Aksept**) anglatadi.

Aksept ushbu shartnomani ikki tomonlama yozma shaklda imzolangan shartnomaga tenglashtiradi va qonuniy kuchga ega bo'ladi.

1. Atamalar va ta'riflar

- **Ijrochi (Klinika)** – O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan berilgan litsenziya asosida ambulator-poliklinika, diagnostika, jarrohlik va statsionar tibbiy faoliyat ko'rsatuvchi **«EUROSUN HEALTHCARE» MChJ QK**
- **Mijoz (Bemor)** – Ushbu Oferta shartlarini qabul qilgan, klinikaga tibbiy yordam so'rab murojaat etgan har qanday jismoniy shaxs (shuningdek, voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz shaxslarning qonuniy vakillari/vasiylari).
- **Xizmatlar** – Klinikaning amaldagi Prayskurandida ko'rsatilgan, shifokorlar (shu jumladan, xorijiy va taklif etilgan mutaxassislar) ko'rigi, konsiliumlar, laboratoriya, instrumental va yuqori texnologiyali diagnostika, jarrohlik amaliyotlari, statsionar davolash va reabilitatsiya xizmatlari.
- **Axborotlashtirilgan ixtiyoriy rozilik (IMR)** – Bemor tomonidan bo'lajak tibbiy aralashuv, operatsiya yoki muolajalarning maqsadi, uslubi, ulardan kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavflar (risklar) va asoratlar haqida to'liq ma'lumot olgandan so'ng o'z ixtiyori bilan imzolanadigan, ushbu shartnomaning uzviy qismi hisoblangan huquqiy hujjat.

2. Shartnoma maqsadi va kafolatlar

2.1. Mazkur Shartnoma asosida Klinika Bemorning murojaati, shifokor ko‘rsatmalari va amaldagi tibbiy standartlarga muvofiq pullik tibbiy xizmatlar ko‘rsatadi, Bemor esa ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini belgilangan tartibda to‘laydi.

2.2. Tibbiyot fani va inson organizmining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, har bir organizmning davolashga, dori vositalariga va jarrohlik amaliyotiga bo‘lgan reaksiyasi individualdir.

2.3 Klinika tibbiy muolajalarni amaldagi standartlarga muvofiq, malakali va to‘g‘ri bajarilishiga kafolat beradi.

3. Moliyaviy shartlar va pulni qaytarish (refund) tartibi

3.1. Tibbiy xizmatlar narxi Klinika rahbariyati tomonidan tasdiqlangan va to‘lov kunida amalda bo‘lgan Prayskurand (bu klinikadagi barcha xizmatlar va ularning rasmiy narxlari) ko‘rsatilgan **tasdiqlangan narxlar ro‘yxati** asosida belgilanadi.

Klinika narxlarni istalgan vaqtda oldindan taraflarning roziligi bilan tomonlama o‘zgartirish huquqiga ega. (Ko`rsatilgan hizmatlar turiga qara)

3.2. Ambulator-diagnostika va shifokor ko‘riklari uchun to‘lov **100% oldindan to‘lov** sharti bilan milliy valyuta (so‘m)da naqd pul, bank kartalari yoki masofaviy elektron to‘lov tizimlari orqali yoki pul o`tkazish yo`li bilan (sug`urta va boshqa har qanday tashkilotlarning to`lovlari orqali) amalga oshiriladi.

3.3. **Jarrohlik va statsionar davolash shartlari:**

Operatsiyalar va statsionarda qolish uchun dastlabki hisob-kitob (kalkulyatsiya) bo‘yicha oldindan to‘lov undiriladi.

Davolash yoki operatsiya jarayonida rejalashtirilmagan qo‘shimcha tahlillar, dori-darmonlar, sarf materiallari yoki qo‘shimcha operatsiya kunlari talab etilsa, Bemor (yoki uning vakili) ushbu qo‘shimcha xizmatlar haqini Klinikaning birinchi talabi bilan to‘lashi shart.

Yakuniy o‘zaro hisob-kitob Bemor statsionardan chiqarilishidan oldin amalga oshiriladi. To‘liq hisob-kitob qilinmaguncha, Klinika Bemorga tibbiy hujjatlarning asl nusxalarini va ko‘chirmalarni ushlab turish huquqiga ega.

3.4. **Xizmatdan voz kechish va pulni qaytarish:**

Agar Bemor xizmat ko‘rsatish boshlanishidan (tahlil olinishi, dorilar yuborilishi yoki operatsiya boshlanishidan) oldin undan yozma ravishda voz kechsa, to‘langan mablag‘ to‘liq qaytariladi

Agar xizmatning bir qismi ko‘rsatilgan bo‘lsa, amalda ko‘rsatilgan xizmatlar qiymati, ishlatilgan dori-darmonlar, bir martalik tibbiy asboblar va sarf materiallarining to‘liq qiymati, shuningdek, shifokorlarning vaqt sarfi chegirib tashlangan holda, qolgan qoldiq mablag‘ qaytariladi. *(Bunda shifokorlarning birlamchi konsultatsiya va ko‘riklari, olingan laboratoriya tahlillari va instrumental diagnostika xarajatlari, Bemor uchun sarflangan yoki ishlatilgan dori vositalari hamda tibbiy buyumlar qiymati, operatsiyaga tayyorgarlik ko‘rish bilan bog‘liq boshqa barcha haqiqiy xarajatlar) to‘liqligicha ushlab qolinadi.*

Bemorning o‘z ixtiyori bilan (Klinika aybisiz) shifokor tayyinlagan toliq davolash kursini oxirigacha yetkazmasdan statsionarni tark etishi holatida, o‘tgan kunlar va qilingan muolajalar uchun pul mablag‘lari qaytarib berilmaydi.

4. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

4.1. Klinikaning (Ijrochining) huquqlari va majburiyatlari

4.1.1. Klinika xizmat ko'rsatishni istalgan bosqichda bir tomonlama to'xtatish huquqiga ega. Bunda bemor to'lagan puldan faqat amalda qilingan xarajatlar (tahlil, ko'rik, dorilar, ishlatilgan jihozlar va shifokor vaqti) chegirib qolinadi, qolgan pul qaytariladi.

4.1.2. Bemor yoki uning qarindoshlari xodimlarga qo'pollik qilsa, haqorat qilsa, internetda tuhmat bilan tahdid qilsa yoki ichki tartibni buzsa, Klinika shartnomani zudlik bilan bekor qilish va tegishli organga murojaat qilish huquqiga ega.

4.1.3. Operatsiya davomida boshqa alomat/kasallik aniqlansa, shifokorlar bemor yoki uning qarindoshlari roziligini kutmasdan, hayotni saqlash uchun operatsiya hajmini mustaqil kengaytirish va davolash huquqiga ega.

4.1.4. Klinika zaruriyat tug'ilganda davolovchi shifokor yoki jarrohni bemorning roziligisiz boshqa malakali mutaxassisga almashtirish huquqiga ega.

4.1.5. Bemorga tibbiy yordamni Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan amaldagi klinik protokollar va tibbiy standartlar asosida sifatli ko'rsatish.

4.1.6. Klinikada sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish, bemorning xavfsiz va toza muhitda davolanishini ta'minlash.

4.1.7. Bemorga to'langan pullar uchun rasmiy kassa cheki (yoki kvitansiya) berish, tibbiy hujjatlarni (tarix, karta) qonuniy tartibda yuritish.

4.1.8. Bemorning kasalligi, tashxisi va shaxsiy ma'lumotlarini shifokorlik siri sifatida qat'iy saqlash, uchinchi shaxslarga ruxsatsiz bermaslik.

4.2. Bemorning (Mijozning) huquq va majburiyatlari

4.2.1. Bemor shifokorga o'zining individual sog'lig'i, o'tkazgan va yashirin kasalliklari, OIV/OITS, gepatit, sil va boshqa yuqumli kasalliklar bilan kasallanganligi, barcha turdagi allergik reaksiyalari, qabul qilayotgan dori vositalari, irsiy xususiyatlari va homiladorlik (ayollar uchun) haqida **mutlaqo to'g'ri va to'liq ma'lumot taqdim etishi shart.**

4.2.2. Bemor shifokor tomonidan belgilangan davolash rejasi, dori preparatlarini qabul qilish sxemasi va dozasi, parhez, jismoniy faollikni cheklash hamda operatsiyadan keyingi reabilitatsiya qoidalariga **qat'iy va so'zsiz rioya qilishi shart.**

4.2.3. Bemor Klinika hududida tibbiyot xodimlarining ruxsatisiz boshqa dori vositalarini, biologik faol qo'shimchalarni (BAA) yoki xalq tabobati usullarini qo'llashi qat'iyan man etiladi.

4.2.4 O'zining sog'lig'i holati, aniqlangan tashxis, o'tkazilgan operatsiya natijalari va qo'llanilayotgan davolash usullari haqida to'liq va tushunarli ma'lumot olish, Zarurat tug'ilganda yoki xohishiga ko'ra (klinika imkoniyatlaridan kelib chiqib) davolovchi shifokor yoki jarrohni almashtirishni so'rash, Operatsiya, muolajalar yoki tahlillar boshlanishidan oldin istalgan vaqtda davolanishdan yozma ravishda voz kechish (bunda amalda qilingan xarajatlar chegirib qolinadi) O'ziga tegishli bo'lgan barcha tibbiy va shaxsiy ma'lumotlarning (shifokorlik sirining) qat'iy saqlanishini talab qilish.

5. Javobgarlikdan ozod etish

5.1. Klinika quyidagi holatlarda Bemorning sog'lig'iga yetkazilgan har qanday zarar, asoratlar yoki davolashning samarasizligi uchun **hech qanday huquqiy va moliyaviy javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi**:

5.2. Bemor shifokor tavsiyalarini, dori qabul qilish qoidalarini yoki statsionar rejimini qisman bo'lsa-da buzgan bo'lsa;

5.3 Bemor o'zidagi surunkali yoki yashirin kasalliklar, patologiyalar yoki dori vositalariga bo'lgan yuqori sezuvchanlik (allergiya) haqida shifokorni yozma ravishda ogohlantirmagan bo'lsa;

5.4 Tibbiy aralashuv, anesteziya (narkoz) yoki operatsiya davomida inson organizmining zamonaviy tibbiyot darajasida oldindan prognoz qilib bo'lmaydigan asoratlari yoki individual kutilmagan reaksiyalari (masalan, anafilaktik shok, tromboemboliya, yurak to'xtashi) yuzaga kelsa;

5.5 Bemor Klinika shifokorlari tomonidan tayyinlanmagan boshqa dori vositalarini o'zboshimchalik bilan qabul qilishi natijasida sog'lig'iga zarar yetsa.

Klinika hududida (palatalarda, koridorlarda) Bemor va uning hamrohlari tomonidan qarovsiz qoldirilgan shaxsiy, qimmatbaho buyumlar, pullar yoki hujjatlar yo'qolishi yoki o'g'irlanishi uchun Klinika ma'muriyati javobgar emas.

5.6 Bemor jarrohlik amaliyotidan so'ng shifokor tomonidan belgilangan grafik asosida (operatsiyadan keyingi 1-kun, 10-kun, 1-oy va 3-oylik muddatlarda) **majburiy nazorat ko'riklariga kelishi shart**. Bemorning nazorat ko'riklariga kelmaganligi yoki kechikib kelganligi uning shifokor tavsiyalariga rioya qilmaganligi va o'z sog'lig'iga mas'uliyatsizlik bilan yondashganligi deb baholanadi hamda shifokor va klinikani barcha javobgarlikdan ozod qiladi.

5.7 Bemor ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar sifati, operatsiya natijasi yoki shifokor harakatlaridan norozi bo'lgan taqdirda, o'zining asoslantirilgan yozma e'tirozini operatsiya o'tkazilgan sanadan boshlab **eng kechi bilan 30 (o'ttiz) kalendar kuni ichida** Klinikaga taqdim etishi shart.

5.8 Bemor tomonidan Klinikaga yoki shifokorga nisbatan har qanday ko'rinishdagi moddiy zarar, kompensatsiya yoki to'langan pul mablag'larini undirish haqidagi talablar faqatgina Sog'liqni saqlash vazirligi akkreditatsiyasidan o'tgan mustaqil tibbiy ekspertiza yoki Sud-tibbiy ekspertizasining rasmiy xulosasi mavjud bo'lgandagina ko'rib chiqilishi mumkin.

6. Shaxsiy ma'lumotlar va shifokorlik siri

6.1. O'zbekiston Respublikasining «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, bemorning o'zining shaxsiy ma'lumotlarini (F.I.O., pasport/ID ma'lumotlari, telefon raqami, kasallik tarixi, tahlil natijalari) Klinika tomonidan to'planishi, elektron ma'lumotlar bazalariga kiritilishi, saqlanishi va qayta ishlanishiga so'zsiz rozilik beradi.

6.2. Klinika Bemorning shifokorlik sirini qonun hujjatlarida belgilangan hollardan tashqari (sud, prokuratura yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning rasmiy so'rovlari) to'liq maxfiy saqlash majburiyatini oladi.

7. Nizolarni sudgacha hal etish

7.1. Ushbu Shartnoma yuzasidan kelib chiqadigan har qanday nizo, e'tiroz yoki e'tiroznomalar majburiy ravishda **sudgacha bo'lgan yozma da'vo tartibida** ko'rib chiqiladi.
7.2. Bemor o'z e'tirozlarini asoslantirgan holda, yozma ravishda Klinika rahbariyatiga (direktor nomiga) taqdim etishi shart.

Klinika rahbariyati da'voni olgan kundan boshlab **15 (o'n besh) ish kuni** ichida (murakkab ekspertiza talab etilsa 30 kungacha) uni ko'rib chiqadi va rasmiy yozma javob qaytaradi.

7.3. Da'vo tartibida o'zaro kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, faqat **Ijrochi (Klinika) joylashgan hududdagi (Shayxontohur tumani) fuqarolik ishlari bo'yicha sudda** ko'rib chiqiladi. Bemor boshqa hududdagi sudga murojaat qilish huquqidan ushbu shartnoma orqali voz kechadi (shartnomaviy sudlovlilik).

8. Fors-Major

8.1. Tomonlar o'zlariga bog'liq bo'lmagan, favqulodda va oldini olib bo'lmaydigan holatlar (tabiiy ofatlar, yirik avariyalar, harbiy harakatlar, karantin cheklovlari, epidemiyalar, elektr energiyasi yoki kislorod ta'minotidagi global uzilishlar, davlat organlarining cheklovchi hujjatlari) tufayli shartnoma majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajara olmasalar, javobgarlikdan ozod etiladilar.

9. Xizmatlar qiymati va hisob-kitob qilish tartibi

9.1. Xizmatlar narxi (Preyskurant): Ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar va jarrohlik amaliyotlarining to'liq qiymati **Klinika tomonidan tasdiqlangan va to'lov kunida amalda bo'lgan rasmiy narxlar ro'yxatiga** (Preyskurantga) muvofiq belgilanadi.

Bemor yoki uning to'lovni amalga oshiruvchi vakili xizmatlar narxi bilan to'lovdan oldin to'liq tanishganligini tasdiqlaydi.

9.2. To'lov shakllari: Klinikada ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar uchun to'lovlar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda amalga oshiriladi. To'lovlar Bemor yoki uning vakillari tomonidan quyidagi shakllarda o'tkazilishi mumkin: kassa orqali naqd pulda, bank plastik kartalari (UzCard, Humo, Visa, MasterCard) orqali terminalda, bank o'tkazmalari (pul ko'chirish) orqali yoki elektron to'lov tizimlari (Payme, Click va h.k.) yordamida.

9.3. To'lov muddati: Shartnoma bo'yicha tibbiy xizmatlar va jarrohlik amaliyoti faqatgina xizmat qiymatining 100% (yuz foiz) miqdorida oldindan to'lov (avans) to'liq amalga oshirilgandan so'ng ko'rsatiladi. To'lov amalga oshirilmagan taqdirda, Klinika xizmat ko'rsatishni rad etish huquqiga ega.

9.4. Qo'shimcha xizmatlar uchun to'lov: Jarrohlik amaliyoti yoki davolash davomida Bemorning sog'lig'i holatiga ko'ra qo'shimcha tibbiy xizmatlar, tahlillar yoki dori vositalariga ehtiyoj tug'ilsa, ushbu xizmatlar uchun qo'shimcha haq undiriladi va qayta hisob-kitob qiladi.

9.5. To'lov hujjati (Chek): Bemor yoki uning vakiliga har qanday to'lov turi uchun rasmiy kassa cheki yoki terminal kvitansiyasi beriladi. Ushbu hujjat Ofertaning aksept qilinganligini tasdiqlovchi yuridik fakt hisoblanadi.

10. Shifokorning (jarrohning) huquq va majburiyatlari

10.1. Shifokor (jarroh) amaldagi tibbiy standartlar, klinik protokollar va o'zining professional tajribasidan kelib chiqib, Bemor uchun eng to'g'ri dori-darmonlarni, tibbiy muolajalarni, anesteziya turini hamda jarrohlik amaliyoti (operatsiya) metodikasini **mustaqil ravishda tanlash va o'zgartirish huquqiga ega**. Bemor yoki uning qarindoshlari shifokorga diagnostika va davolash jarayoni bo'yicha ko'rsatma berishga, ma'lum bir dori vositalarini yoki operatsiya usullarini majburlab talab qilishga haqli emas.

10.2 Agar Bemor yoki uning yaqin qarindoshlari (qonuniy vakillari) shifokorning tibbiy tavsiyalarini, buyurgan dori-darmonlarini yoki rejimini bajarmasa, Klinikaning ichki tartib-qoidalarini buzsa, shifokorning professional sha'ni, qadr-qimmati va shaxsiyatiga tegadigan xatti-harakatlar qilsa (haqoratlash, tahdid qilish, ishonchsizlik bildirish) — **shifokor Bemorning hayotiga bevosita va muqarrar xavf tug'ilmagan vaziyatlarda uni davolashni, operatsiya**

qilishni yoki unga xizmat ko‘rsatishni bir tomonlama rad etish hamda uni qonuniy tartibda boshqa mutaxassisga yo‘naltirish huquqiga ega.

10.3 Shifokor jarrohlik amaliyotidan oldin, operatsiya jarayonida yoki undan keyingi davrda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan asoratlar va risklar xavfini minimal darajaga tushirish maqsadida, Bemordan shartnomada ko‘rsatilganidan tashqari **qo‘shimcha laboratoriya tahlillari, instrumental diagnostika (KT, MRT, UTT va h.k.) hamda turdosh mutaxassislar ko‘rigidan o‘tishni qat’iy talab qilish huquqiga ega**. Bemor ushbu qo‘shimcha tekshiruvlardan o‘tishni rad etgan taqdirda, shifokor operatsiyani bekor qiladi va.yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha salbiy oqibatlar va asoratlar uchun javobgarlik Bemor hamda uning vakillari zimmasiga yuklatiladi.

10.4 Shifokor (jarroh) o‘z zimmasidagi majburiyatlarni O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan amaldagi klinik protokollar, tibbiy-sanitariya normalari va o‘zining lavozim yo‘riqnomalariga qat’iy rioya qilgan holda, sifatli va vijdonan bajarishga majbur.

10.5 Shifokor jarrohlik amaliyoti yoki murakkab muolajalar boshlanishidan oldin Bemorga (yoki uning qonuniy vakiliga) bo‘lajak operatsiyaning maqsadi, uning bosqichlari, kutilayotgan natijalar hamda inson organizmining biologik xususiyatlaridan kelib chiqib yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha **tabiiy tibbiy risklar, asoratlar va xavflar haqida tushunarli shaklda ma’lumot berishi majburiydir**.

10.6 Shifokor Bemorning tibbiy yordam so‘rab murojaat qilganligi faktini, uning sog‘lig‘i holati, qo‘yilgan tashxis, o‘tkazilgan operatsiya tafsilotlari va davolanish jarayonida olingan boshqa barcha shaxsiy ma’lumotlarni (shifokorlik sirini) qat’iy saqlashga majbur. Mazkur ma’lumotlar uchinchi shaxslarga (shu jumladan, bemor rasman ruxsat bermagan qarindoshlariga) faqat amaldagi qonunchilikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan holatlardagina (sud, prokuratura yoki surishtiruv organlarining rasmiy talabiga binoan) taqdim etilishi mumkin.

11. TOMONLARNING MA’LUMOTLARI VA IMZOLASH QISMI:

IJROCHI:
«EUROSUN HEALTHCARE» MChJ QK
Manzil: Shayhontohur t., Labzak-1A
STIR (INN): 308 229 965
MFO: 01095
H/r: 2020 8000 4053 5071 5001
Bank: Asia Alliance
Direktor: Ergasheva D./

(M.O‘.)